

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: №  
2023 yil "8" avgust

FALSAFA  
fani

O'QUV DASTURI

Toshkent – 2023

<b>Fan/modul kodi</b> <b>FALB204</b>	<b>O‘quv yili</b> 2023-2024	<b>Semestr</b> 1	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotla ri (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Falsafa</b>	60	60	120

### I. Fanning mazmuni.

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalar dunyoqarashining umumlashgan tizimini yaratish va unda inson o‘rnini ko‘rsatish, insonning dunyoga bo‘lgan bilish, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, estetik va boshqa munosabatlarini shakllantirish hamda to‘g‘ri fikrlash mahoratini o‘rgatishdan iborat;

**Fanning vazifalari** – talabalarning dunyoni bilish va uni o`zgartirishga tanqidiy tafakkur nuqtai nazardan yondashuvi, tabiiy ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyati; texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi; milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o‘zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyat va faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning ahamiyati, to‘g‘ri fikrning ijobjiy maqsadlarga yo‘naltirishdagi o‘rni; ta’lim falsafasi va falsafa ta’limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni, global korrupsiyaning sabablari, shakllarini bilish va ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida to‘liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas’uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo`shish tuyg`usini shakllantirishdan iborat.

### II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

#### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-MODUL. FALSAFA VA MANTIQ

##### 1-mavzu. Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli

Falsafaning predmeti, asosiy masalalari, tuzulmasi, funksiyalari. Falsafaning paydo bo‘lishi va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik va diniy dunyoqarash, falsafiy va ilmiy dunyoqarash, ularning o‘aro aloqadorligi hamda o‘ziga xosligi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar dunyoqarashida axboriy tahdidlarga qarshi imunitetni shakllantirishda falsafaning ahamiyati.

##### 2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq falsafasi

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo‘lishi haqidagi mifologik

tasavvurlarning shakllanishi. Qadimgi Hindistonda olam va odamning kelib chiqishi, ularning o‘zaro munosabati borasidagi falsafiy qarashlarning rivojlanishi. Vedalar va Upanishadlar qadimgi hind donishmandligining manbai sifatida. Qadimgi hind falsafiy maktablari. “Avesto” qadimgi davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan inson, tabiat, jamiyat va davlatchilik haqidagi falsafiy g‘oyalarning ilk manbai sifatida. Daochilik, Konfutsiychilik, Moizm, Legizm singari qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining borliq, inson, jamiyat va davlatning mohiyati, ijtimoiy-siyosiy tartibot, yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqidagi g‘oyalari.

Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi taraqqiyoti (Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abubakr ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sinolarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy falsafiy qarashlari). Islomiy ilmlar rivojida Xuroson va Mavarounnahrdan yetishib chiqqan olimlar hissasi. Ilk o‘rta asr Sharq falsafasi va uyg‘onish davri. Ilk o‘rta asrda tasavvuf va islom ilohiyotshunoslik maktablari ta’limotlari.

Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi. Temuriylar davrida tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyoti (Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchilarining tabiatshunoslik fanlariga qo‘sghan hissasi).

Yangi davr Sharq tasavvufi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. Sharq istilosini bilan bog‘liq uyg‘onish harakatlari, osiyotsentrizm, panturkizm, panislomizm, ma’rifatparvarlik va jadidchilik ta’limotlari. O‘zbekistonda falsafiy fikrlar rivoji. O‘zbekistonda ajdodlar me’rosini tiklash va ularni jahonda keng ommalashtirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati.

### **3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G‘arb falsafasi**

Qadimgi Yunonistonda falsafa ilmining shakllanishi. Sokratgacha bo‘lgan davr falsafasida olamning paydo bo‘lishi, uning mohiyatida yotuvchi unsurlar, borliqning tuzulmasi unda ro‘y beradigan o‘zgarishlar, taraqqiyot va tanazzulning sabablari, borliqning o‘zgarmas asoslari (suv, havo, tuproq, olov, apeyron, atom,) haqidagi Melit maktabi, Geraklit, Pifagor, Eley maktabi, Empedokl, Anaksagorlar qarashlari. Suqrotning va sofistlarning inson haqidagi qarashlari. Aflatun va Arastuning borliq paydo bo‘lishi, insonning bilish imkoniyatlari, axloqiy fazilatlar, jamiyat hamda davlat borasidagi g‘oyalari. Ellinizm davri falsafaning inson hayotidagi o‘rni, fizika, mantiq, axloq ilmlarining mutanosibligi, erkinlik, shubhaning bilish jarayonidagi ahamiyati g‘oyalarining tarqalishi.

Ilk o‘rta asr G‘arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Ilk o‘rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika, sxolastika, nominalizm va realizm. Avreley Avgustin ta’limoti. Foma Akvinskiy ta’limoti. O‘rta asrlar Yevropasida Uyg‘onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo‘nalishlari. Yangi davr G‘arb falsafasidagi asosiy muammolar. XVIII asr Yevropa falsafasining ma’rifiy xususiyatlari. XX-XXI asr G‘arb falsafasining oqimlari (pozitivizm, neopozitivizm, pragmatizm, ekzistensializm, fenomenologiya, postmodernizm,

personalizm oqimlari). XX-XXI asr G‘arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.

#### **4-mavzu. Borliq (ontologiya) va rivojlanish falsafasi**

Borliqni ta’riflash muammosi. Tabiiy ilmiy fanlar va falsafa tarixida “Borliq” kategoriyasining o‘rganilishi. Borliq, mavjudlik va reallik. Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va Noosfera haqidagi ta’limotlar, koevolyusion va invayronmental nazariyalar. Borliqning o‘zgarmas asosi (substansiya va substrat) tushunchalarining mohiyati. Borliq ibtidosini sifatiy va miqdoriy jihatdan tushuntirishga oid konsepsiylar tasnifi (Monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm). Borliqda shakllanish, o‘zgarish, rivojlanish va taraqqiyotning o‘zaro aloqadorligi. Makon, vaqt va harakat tushunchalari. Materiya (modda) falsafa va tabiatshunoslikning kategoriyasi sifatida. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Falsafaning asosiy qonunlari. Qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni. Miqdor va sifat o‘zgarishlari dialektikasi. Inkorni inkor qonuni va vorisiylik. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Falsafa va fan kategoriyalarining tasnifi. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalar. O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy dasturining atrof-muhitni saqlab qolishdagi ahamiyati.

#### **5-mavzu. Bilish falsafasi (gnoseologiya)**

Bilish jarayonining mohiyati va asosiy mezonlari. Bilish jarayoniga oid yondashuvlar tasnifi: otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizmning mohiyati. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda sub’ekt va ob’ektning o‘zaro aloqasi. Bilish faoliyat turi sifatida. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv, bilish darajalarining o‘zaro aloqasi va farqi. Hissiy va aqliy bilish darajalari. Sensualizm va ratsionalizm. Haqiqat bilishning bosh maqsadi. Amaliyat - haqiqat mezoni sifatida. Haqiqatning asosiy shakllari. Relyativizm va dogmatizm. Bilish metodologiyasi. Bilishning empirik va nazariy metodlari. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi. Tizim, tizimli yondashuv, tizimli tahlil tushunchalarining o‘zaro aloqasi va farqi.

#### **6-mavzu. Mantiq.**

Mantiq tushunchasi va unga xilma-xil yondoshuv: ob’ektiv mantiq, sub’ektiv mantiq. Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sohasi sifatida. Mantiqiy tafakkur evolyutsiyasi: formal, dialektik va noklassik mantiq. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Tafakkur qonunlari, ularning mazmuni va to‘g‘ri fikr yuritishdagi ahamiyati. Ayniyat qonuning to‘g‘ri fikrlashdagi o‘rni. Ayniyat qonuni buzilganda kelib chiqadigan xatolar. Fikr chinligini aniqlashda nozidlik qonuning o‘rni. Uchinchisi istisno qonuning mohiyati va asosiy talablari. Fikrlarni dalillashda yetarli asos qonuning ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy va sud-huquq jarayonlarida yetarli asos qonuning qo‘llanilishi.

## **7-mavzu. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa.**

Tushuncha - predmetlarning umumiyligi, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ular o'rtasidagi teskari nisbat. Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish. Tushunchani ta'riflash (definitsiya). Ta'riflash qoidalari va ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar. Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va xususiyatlari. Oddiy va murakkab hukm. Murakkab hukmlarni xosil qiluvchi mantiqiy bog'lamalar. Savol va javobning muhokama yuritishdagi ahamiyati. Xulosa chiqarishning umumiyligi mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilishi. Xulosa chiqarish turlari. Oddiy qat'iy sillogizm, uning tarkibi, aksiomasi va umumiyligi qoidalari. Sillogizm figuralari va moduslari. Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish. Induktiv xulosa chiqarish. Induktsiyaning tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarishning turlari. Analogiya, uning turlari.

## **8-mavzu. Jamiyat falsafasi**

Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Jamiatning paydo bo'lishiga oid qarashlar. Jamiat rivojining iqtisodiy asoslari. Jamiat rivojining ma'nnaviy va ijtimoiy asoslari. Jamiat rivojining siyosiy asoslari. Fuqarolik jamiyat, davlat boshqaruvi va demokratiya. Jamiat taraqqiyotida tarixning mazmuni, yo'nalishlari va konsepsiyalari. Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Madaniyat va sivilizatsiya mutanosibligi. Madaniyatning funksiyalari. Madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati.

O'zbek etnomadaniyatning xususiyatlari. Madaniyatlararo kommunikatsiya. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiyligi va farqlari. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiya.

## **9-mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)**

Falsafa tarixida insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Inson mohiyatiga fan nuqtai nazaridan yondashuv. Inson, individ, shaxs tushunchalarining o'zaro aloqadorligi. Ongning mohiyati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi. Insonning bioijtimoiy, psixologik mohiyati. Falsafiy antropologiyaning inson haqidagi ta'lilot sifatidagi mohiyati. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Hayotni tark etish bosqichlari (suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijod faoliyat turi. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati. Inson-jamiyat-davlat tamoyilining falsafiy mazmuni.

## **10-mavzu. Qadriyatlar falsafasi (aksiologyia)**

Qadriyat tushunchasining ma’nosи va uning umumiy tavsifi. Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi. Ehtiyojlar va qadriyatlar dinamikasi. Qadriyatlarning turlari (umuminsoniy, milliy, shaxsiy qadriyatlar). Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlikning qadriyatini jihatlari. Oiladagi ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta’siri. Gender tengligini ta’minalashda inson mehnati qadrlanishining ahamiyati. Mahalla – o’zbek milliy qadriyati sifatida. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minalashdagi o’rni. Oila-ta’lim-mahalla tizimi. Qadriyatlarning ijtimoiy-ma`naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o’rni. Qadriyatlarni baholash. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarning transformasiyasi. Jamiatning devalvatsiyasi (qadrlanish va qadrsizlanish). Sog’likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Sog’lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari.

## **2-MODUL. AXLOQ VA NAFOSAT FALSAFASI. KORRUPSIYA - HOZIRGI ZAMON GLOBAL MUAMMOSI SIFATIDA**

### **11-mavzu. Axloq falsafasi (Etika)**

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy etikaning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikadagi qadriyatlar va kategoriylar. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy (professional) etika. Kasbiy etikaning muammolari. Kasbiy axloq va mehnat etikasi. Kiberetika. Tibbiy etika. Yuridik etika. Ijtimoiy hayot etikasi. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Siyosat va axloq o’rtasidagi munosabat. Ekologik etika. Ishbilarmenlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika. Bioetikaning axloqiy jihatlari.

### **12-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika)**

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta’siri. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetika va san’at. San’atning funksiyalari. Amaliy san’atning estetik jihatlari. Estetika va dizayn. Reklamaning estetik didni tarbiyalashdagi roli. Xalq amaliy san’atining estetik jihatlari. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. San’atdagi inqiroz (degumanizatsiya).

### **13-mavzu. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi**

Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Barqaror taraqqiyotni ta’minalashda globallashuvning ijobjiy va salbiy yo’nalishlari. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolar globallashuvning mahsuli sifatida. Mavjud global muammolar va ularni bartaraf qilish yo’llari, harbiy, tinchlikni saqlash, ekologik, atrof-muhitning ifloslanishi, iqtisodiy, demografik, tibbiy, ijtimoiy, ocharchilik, kambag’allikka qarshi kurash, kriminal, koinot muammolari. Ijtimoiy rivojlanishning global jarayonlarga ta’siri. Global tendensiyalarni anglashning ahamiyati. Global muammolarning mezonlari va

darajalari. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning globallashuvi. Pandemiya - XXI asrning global muammosi va uning oqibatlari. Global makonda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi. Nanotexnologiyalar va Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global mumamolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi.

#### **14-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi**

Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va uning tarixiy ildizlari. Dunyo bo'yicha korrupsiya holatining tasnifi. Korrupsiyaning shakllari va sabablari. Firibgarlik korrupsiya shakli. Korrupsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari. Siyosiy va g'oyaviy korrupsiya – xavfsizlikka tahdid. Iqtisodiy korrupsiya va uning namoyon bo'lish shakllari. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Ta'lif va fan tizimidagi korrupsiyaning oqibatlari. Huquq tartibot organlari, jamoat tashkilotlaridagi korrupsiyaning sabablari. Xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to'qnashuvi oqibati sifatida. Ijtimoiy hayotdagi korrupsiyaning amal qilish sohalari. Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining (Nyu-York, 2003 yil 31 dekabr) mazmuni va mohiyati.

Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi: Singapur, Yaponiya, Shvetsiya va Finlandiya modellari.

#### **15-mavzu. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati**

Korrupsiyaga qarshi kurashda tizimli yondashuvning zarurati. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro huquq normalarining O'zbekiston qonun hujjalariiga implementatsiya qilinishining ahamiyati va uning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslari.

Korrupsiyaning ma'muriy huquqbazarlik va jinoyat sifatidagi tahlili va uni bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ahamiyati. Korrupsiya namoyon bo'lishining ijtimoiy sohalari, psixologik jihatlari. Korrupsioner xulq atvorining umumiy tavsifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy an'anaları.

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli
2. Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq falsafasi
3. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi
4. Borliq (ontologiya) va rivojlanish falsafasi
5. Bilish falsafasi (gnoseologiya)
6. Mantiq
7. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa.

8. Jamiyat falsafasi
9. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)
10. Qadriyatlar falsafasi (aksiologyia)
11. Axloq falsafasi (Etika)
12. Nafosat falsafasi (Estetika)
13. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi
14. Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi
15. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati

#### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari.
2. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi.
3. Ilk o‘rta asr Sharq falsafasi va uyg‘onish davri.
4. O‘rta asr Sharq falsafasi va uyg‘onish davri xususiyatlari.
5. Yangi davr Sharq tasavvufi.
6. Falsafa va tabiiy ilmiy fanlarda borliqning mohiyatiga oid konsepsiylar.
7. Rivojlanishning umumiylarini va kategoriyalari.
8. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv, bilish darajalarining o‘zaro aloqasi va farqi.
9. Jamiyat taraqqiyotida tarixning mazmuni, yo‘nalishlari va konsepsiylar.
10. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati.
11. Insonni tushunishga dualizm va monizm nuqtai nazaridan yondashuv.
12. Qadriyat tushunchasining ma’nosini va uning umumiylarini tavsifi.
13. Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi.
14. Etikaning mohiyati va ahamiyati.
15. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.
16. Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati.
17. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari.
18. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati.
19. Barqaror taraqqiyotni ta’minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo‘nalishlari.
20. Global muammolarning mezonlari va darajalari.
21. Pandemiya - XXI asrning global muammoysi va uning oqibatlari.
22. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro qonunlar va qarorlarning O‘zbekistonda ratifikatsiya qilishning ahamiyati, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari.
23. Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sohasi sifatida.
24. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.

25. Tushuncha - predmetlarning umumiyligi, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl.

26. Tushunchalarni bo‘lishning maqsadi va tuzilishi.

27. Xulosa chiqarishning umumiyligi mantiqiy tavsifi.

28. Dalillash va ishonch-e’tiqodning shakllanish jarayoni.

29. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida rivojlanish modeli va Uchinchi renessans tushunchalari.

30. Amaliy loyihamalar: “Mening oilam – mening baxtim”; “Ustozim – hayiotim chirog’i”; “Mening mahallam – mening faxrim”; “Mahallamning olim va ziyoli insonlari”; “Mening hayot falsafam”.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- dunyo haqidagi eng qadimgi va zamонавији falsafiy bilimlarni о‘рганиш асосида professional faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg‘usini shakllantirish; ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O‘rta asrlar va Yangi davr G‘arb falsafasining asosiy g‘oyalari, Sharq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi roli, G‘arb falsafasi oqimlarining falsafiy mazmun-mohiyatini, G‘arb renessansining mohiyati, uning shakllanishiga o‘rta asr Sharq ilm-fani va falsafasining ta’sirini, Yangi va eng yangi davr G‘arb falsafasining muhim xususiyatlari bo‘yicha **tasavvurga ega bo‘lishi**;

- yangi ontologiyaning yo‘nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyat ontologiyasining ijtimoiy ahamiyatini, fizik va falsafiy ontologiyaning o‘zaro aloqasi va farqlarini, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o‘rni, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta’lim va tarbiya **haqida bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o‘zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilishi, bakalavriatning mos yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, kiberterrorizm, kiberzo‘ravonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo‘lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillarini, korrupsiyaning global ma’naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg‘usi shakllangan bo‘lishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olish, tana va ruhiy sog‘lik, tafakkur xavfsizligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta`minlash, ijtimoiy nazoratni oshirish va shaxsiy mas’uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish bøyicha **malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak**.

## VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blis-so‘rov;
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar.

## **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019
2. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
3. Muhammadjonova L.A. L.A. Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2023
4. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
5. Саифназаров И.С., Абдуллаханова Г.С., Эрназаров Д.З. Философия (Логика, Этика, Эстетика). Учебное пособие для высших учебных заведений. LAMBERT Academik Publishing RU. 2019. -134 стр.
6. Shermuhamedova N. Falsafa. – Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021. 667-b

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017.
4. Rumi J. Yetti majlis. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019
5. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. –Toshkent: Navruz, 2019
6. Ўзбекистоннинг коррупцияга карши кураш стратегияси. / Алиев Б., Мухтаров А., Норов Т. ва бош. / Ўкув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. - 320 б.

7. Ислом Саифназаров. Янги Ўзбекистон:инсон қадри улуғланган юрт.-Т.:”ИЛМ-ЗИЁ-ЗАКОВАТ” МЧЖ, 2023. -209 б.
8. O‘zbekiston falsafasi tarixi. Aliqulov X. mas’ul muharrir, mualliflar jamoasi. -Toshkent: Noshir, 2013
9. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: 2003
10. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi. –Toshkent: Noshir, 2009
11. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. –Toshkent: Noshir, 2018
12. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. –Toshkent: Innovasiya-Ziyo 2021
13. Shermuxamedova N.A. Falsafa –Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 633 b.
14. Shermuxamedova N.A. Korrupsiyaning sabablari va shakllari//Falsafa va hayot 2019, № B.39-55.
15. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janaway. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.

### **Axborot manbalari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

	Fan dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023-yil -avgustdagi -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	<p><b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b></p> <p><b>Shermuxamedova N.A.</b> – O‘zMU, “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor</p> <p><b>Madaeva Sh.O.</b> – O‘zMU, “Falsafa va mantiq” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor</p> <p><b>Muxammadjonova L.A.</b> – O‘zMU, “Etika va estetika” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor</p>
	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Saifnazarov I.S.</b> – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori</p> <p><b>Nishonova O.J.</b> – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasining professori, falsafa fanlari doktori</p> <p><b>Fayziox‘jaeva D.I.</b> – O‘zMU “Falsafa va mantiq” kafedrasining dotsenti, falsafa fanlari doktori (Dsc)</p>

